
18-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABIDA ALISHYER NAVOIY TAVALLUDINING 582 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TADBIR BO'LIB O'TDI

Har yili 9 fevral - buyuk bobokalonimiz, shoirlar sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludini keng nishonlash an'anaga aylangan. Bugun Alisher Navoiy tavalludiga bag'islangan tadbirlar Toshloq tumanining barcha ta'lim muassasalarida keng nishonlandi. Hususan, 18-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Unda maktab o'quvchilari o'rtasida Hazrat Alisher Navoiyning g'azal va ruboiylaridan aytishuvlar bo'lib o'tdi. A.Navoiyning «Hamsa» dostonidagi qahramonlar obrazlariga ta'riflar berildi. Tadbirda maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar, shoir g'azallari va ruboiylaridan o'qib berilgan parchalar barchaga manzur bo'ldi.

2023-02-09 16:47:31